Jamiyat va boshqaruv

Общество и управление / Society and Administration

2026/2(112)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI
AKADEMIYASI

doi

Crossref
Content
Registration

Toshkent – 2026

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI
AKADEMIYASI

JAMIYAT VA BOSHQARUV

Общество и управление / Society and Administration

2026/2(112)

1997-yildan nashr etiladi

ISSN: 2181-7340
E-ISSN: 3093-9208

Toshkent – 2026

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING HUQUQIJODKORLIGI:HUJJATLAR TIZIMI VA XUSUSIYATLARI



Botu ALIMOV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi mustaqil izlanuvchisi, yuridik fanlar bo'yicha PhD

Annotatsiya: maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2026- yillarda qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlari – farmonlar, qarorlar va farmoyishlari tahlil qilindi. Prezident huquqi ijodkorligining hajmi va dinamikasi, uch toifa hujjatning funksional tabiati, huquqiy manbasi, ochiqlik indeksi va konstitutsiyaviy iyerarxiya miqdoriy usullarda o'rganilib, natijalar 1991-2016-yillar davri bilan taqqoslangan, mavzu yuzasidan milliy va xorijiy olimlar bilan ilmiy bahs-munozara orqali mualliflik xulosalari ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: *Prezident hujjatlari, farmon, qaror, farmoyish, huquq ijodkorligi, normativ inflyatsiya, huquqiy ochiqlik, konstitutsiyaviy iyerarxiya, prezidentlashtirish, ijro hokimiyati. qonunosti hujjat, Vazirlar Mahkamasi.*

Правотворчество Президента Республики Узбекистан: система документов и особенности

Боту Алимов,
соискатель Академии государственной политики и управления при Президенте Республики Узбекистан, PhD по юридическим наукам

Аннотация: в статье проанализированы нормативно-правовые акты — указы, постановления и распоряжения, принятые Президентом Республики Узбекистан в 2017–2026 годах. Объём и динамика правотворчества Президента, функциональная природа трёх видов актов, их правовой источник, индекс открытости и конституционная иерархия исследованы количественными методами, результаты сопоставлены с периодом 1991–2016 годов, а авторские выводы выдвинуты посредством научной дискуссии с национальными и зарубежными учёными по данной теме.

Ключевые слова: акты Президента, указ, постановление, распоряжение, правотворчество, нормативная инфляция, правовая открытость, конституционная иерархия, президентализация, исполнительная власть, подзаконный акт, Кабинет Министров.

Law-making of the President of the Republic of Uzbekistan: the system of documents and its features

Botu Alimov,
Researcherof the Academy of Public Policy and Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, PhD in Law

Abstract: the article analyses the normative-legal acts — decrees, resolutions and directives, adopted by the President of the Republic of Uzbekistan in 2017–2026. The volume and dynamics of the President's law-making, the functional nature of the three types of acts, their legal source, the openness index and the constitutional hierarchy are examined through quantitative methods; the findings are compared with the period of 1991–2016, and the author's conclusions are advanced through scholarly discussion with national and foreign researchers on the subject.

Keywords: presidential acts, decree, resolution, directive, law-making, normative inflation, legal openness, constitutional hierarchy, presidentialization, executive power, subordinate (by-law) act, Cabinet of Ministers.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarni harakatga keltiruvchi asosiy vosita Prezidentning normativ-huquqiy hujjatlari sanaladi. Iqtisodiyot, davlat boshqaruvi, ijtimoiy soha, tashqi siyosat, xavfsizlik kabi yo‘nalishlardagi o‘zgarishlar, asosan, farmon va qarorlar orqali yo‘lga qo‘yiladi. 2017-2026-yillarda uch mingdan ortiq Prezident hujjatlari qabul qilingani bu vositaning ko‘lami va mamlakat hayotidagi o‘rnini yaqqol ko‘rsatadi.

Shu bois ushbu hujjatlar tizimini o‘rganish muhim vazifa bo‘lib, uning doirasi, huquqiy tabiati va chegaralari hokimiyatlar bo‘linishi, qonun ustuvorligi hamda huquqiy barqarorlik holatini belgilab beradi. Ijro etuvchi hokimiyatning keng ko‘lamli huquq ijodkorligi, garchi samarali boshqaruv vositasi bo‘lsa-da, konstitutsiyaviy muvozanat uchun nazariy va amaliy savollarni ham yuzaga keltiradi.

U. Xauellning fikricha, bir tomonlama direktivalar orqali davlat rahbari fuqarolik huquqlari, atrof-muhit va ijtimoiy farovonlik kabi keng sohalardagi siyosatni bevosita belgilaydi [1, 175-b.]. J. Cheybub esa, farmonlar chiqarish vakolatini ijro etuvchi hokimiyatning yangi norma yaratish qobiliyati deb ta’riflaydi [2, 324-b.]. K. Lovande va J. Rogovskiyning ta’kidlashicha, bunday vakolat qonun chiqaruvchi organning roziligisiz huquqiy status-kvoni o‘zgartirishga imkon beradi [3, 22-b.]. Shu sababli, Prezident hujjatlarining ko‘lami va huquqiy manbai ilmiy tahlil predmetiga aylandi.

Prezident Konstitutsiya va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo‘lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi [5, 110-m.]. Biroq, ushbu hujjatlar tizimi o‘zining qonunosti xarakterini saqlab qolganmi yoki amalda mustaqil normativ manbaga aylanganmi, degan dilemma tizimli empirik tahlilni talab qiladi.

Ushbu tadqiqot 2017-yil yanvardan 2026-yil maygacha bo‘lgan davr oralig‘ida qabul qilingan hamda lex.uz milliy bazasidan olingan Prezidentning 3478 ta hujjati – 952 ta farmon, 2477 ta qaror va 49 ta farmoyishni o‘z ichiga qamrab oladi.

Hujjatlarni to‘plash, ularni mezonlar

asosida tasniflash va tahlil qilish avtomatlashtirilgan tahlil vositalari yordamida amalga oshirilgan bo‘lib, natijalar muallif tomonidan huquqiy jihatdan talqin qilingan. Tahlil miqdoriy-empirik yondashuvga asoslangan bo‘lib, 1991-2016-yillarda qabul qilingan Prezident hujjatlari bilan taqqoslangan. Birinchi masala Prezident huquq ijodkorligining hajmi va dinamikasiga taalluqlidir. Tahlilni aynan shu ko‘rsatkichdan boshlash o‘rinli, chunki bu turdagi hujjatlar hajmi ijro etuvchi hokimiyatning huquq ijodkorligi faolligini ham bevosita aks ettiradi.

Yuqorida qayd etilgan davr oralig‘ida har yili o‘rtacha 374 ta hujjat qabul qilingan bo‘lib, ularning: 71,2 foizini – qarorlar, 27,4 foizini – farmonlar va 1,4 foizini farmoyishlar tashkil etadi. Tendensiya bir tekis emas: eng yuqori ko‘rsatkich 2017-yilda qayd etilgan – 581 ta hujjat, 2020-yilda pandemiya sharoitida bu raqam 275 taga tushdi va keyingi yillarda barqarorlashdi. 1991-2016-yillar oralig‘ida esa, ochiq ma’lumotlar bazasida 1940 ta hujjat ro‘yxatga olingan, bu yiliga o‘rtacha 74,6 tani tashkil etadi, ya’ni deyarli besh baravar kam.

V. Prokofevning fikricha, davlat rahbarining konstitutsiyaviy maqomi muhim norma ijodkorligi vakolatlarini o‘z ichiga oladi [6, 159-b.]. K. Lovande va J. Rogovskiyning kuzatishicha, bir tomonlama vakolat ijro etuvchi hokimiyatga “birinchi yurish huquqi”ni beradi, hokimiyatning boshqa tarmoqlari esa bundan keyingina munosabat bildira oladi [3, 22-b.].

Fikrimizcha, 2017-2026-yillardagi dinamika islohotlar to‘lqinini ochib beradi: dastlabki cho‘qqi islohotlar dasturi bilan, keyingi barqarorlashuv esa, normativ-huquqiy bazaning shakllanishi bilan bog‘liq. Yiliga o‘rtacha 374 ta hujjatning qabul qilinishi va bu ko‘rsatkichning 1991-2016-yillarga nisbatan besh barobar ortgani davlat boshqaruvining markaziy nuqtasi Prezident tomon siljiganini tasdiqlaydi. Bu holat U. Xauell tomonidan taklif etilgan bir tomonlama harakat nazariyasiga mos keladi [1, 175-b.].

Ikkinchi masala – uch turdagi hujjatning funksional-huquqiy tabiatidir. «Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida»gi Qonun Prezident farmonlari va qarorlarini normativ-huquqiy hujjatlar sirasiga kiritadi [7,6-m.], farmoyish esa ko‘proq yakka huquqni qo‘llash xarakteriga ega. S. Prakash davlat rahbarining vakolatlarini to‘rt toifaga – aniq, ijro-ma’muriy, tuzilmaviy va natijaga yo‘naltirilgan turlarga ajratadi hamda ularning turli shakldagi hujjatlarda turlicha namoyon bo‘lishini ko‘rsatib beradi [8,328-b.].

Farmon Prezident huquqi ijodkorligining oliy shakli: strategik va konseptual hujjatlar ulushi unda eng yuqori (7,9 foiz) bo‘lib, u siyosiy doirani belgilaydi va ko‘pincha, yangi huquqiy munosabatlarni o‘rnatadi. Qaror operativ-ijro tabiatiga ega bo‘lib, chora-tadbir (70 foiz), nizom va dastur tasdiqlash (10,3 foiz) hamda davlat organlarini tashkil etish (14,9 foiz) bo‘yicha ustunlik qiladi hamda farmon yo‘nalishlarini amalga oshiradi. Farmoyish esa, yakka tartibdagi, operativ hujjat bo‘lib, joriy va tashkiliy masalalarni hal etadi.

Tasnifga ko‘ra, umumiy hujjatlarning 57,4 foizi – tegishli yo‘nalishlarda chora-tadbirlarni amalga oshirishga, 12,3 foizi – davlat organlarini tashkil etishga, 8,6 foizi esa, amaldagi hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritishga qaratilgan. Soha va tarmoqlar kesimida hujjatlarning 34 foizi iqtisodiyot, ma’muriy boshqaruv va tadbirkorlik

sohalariga oid bo‘lgan. Tashqi siyosat va ta’lim sohalarida qaror ustunlik qilgan bo‘lsa, huquqiy va institutsional masalalarda farmon ko‘proq qo‘llanilgan.

S. Meynvaring prezidentlik tizimlarida davlat boshlig‘i ko‘plab normativ qarorlarni «farmon-qonun» sifatida chiqarishini ko‘rsatadi [9, 11-b.]. B. Gogurchunovning fikricha, davlat rahbari ijro etuvchi hokimiyat tizimidagi asosiy bo‘g‘in hisoblanadi hamda farmon va farmoyishlar chiqaradi [10, 35-b.].

Bizningcha, chora-tadbirlarga oid hujjatlarning ustunligi (57,4 foiz) farmonlar va qarorlar o‘rtasida funksiyalarning tizimli ajratilganidan dalolat beradi: farmon strategik asoslarni belgilasa, qaror uni operativ darajada amalga oshiradi va bu S. Prakashning vakolatlar tasnifiga mos keladi.

Uchinchi masala huquq ijodkorligi subyekti va uning tarixiy evolyutsiyasi tahliliga bag‘ishlangan. 2017-2026-yillarda qarorlar ulushi yuqoriligining ildizlari 2004-yilgacha mavjud bo‘lgan institutsional vaziyatga borib taqaladi. 2004-yilgacha Prezident deyarli faqat farmonlar chiqargan, qarorlar esa, asosan, 2005-yildan imzolana boshlagan. Buning sababi 2003-yildagi konstitutsiyaviy islohotlarga qadar Prezident, ayni vaqtda, Vazirlar Mahkamasining Raisi sifatida operativ huquq ijodkorligini Hukumat qarorlari orqali amalga oshirgan.

1991-2004-yillarda Hukumat qarorlarining 75,8 foizi Prezident tomonidan imzolangan bo‘lsa, 2005-yildan boshlab, bu funksiya, asosan, Bosh vazirga o‘tgan, 2005-2016-yillarda uning ulushi 92,5 foizga yetgan, shu davrda Prezident Hukumatning atigi 169 ta (6,9 foiz) qarorini imzolagan xolos, ular, asosan, strategik yo‘nalishlar – iqtisodiyot va soliqlar, ma’muriy islohotlar, qishloq xo‘jaligi va infratuzilmaga oid bo‘lib, operativ-tartibga solish masalalari Bosh vazir vakolatida qolgan.

M. Mirakulov Prezidentni muvofiqlashtiruvchi funksiyalarni bajaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat ustidan kafil vazifasini o‘tovchi shaxs sifatida ta’riflaydi [4, 24-b.]. Hujjatlarni imzolashda funksiyalarning taqsimlanishi buni tasdiqlaydi: Prezident darajasida strategik siyosiy iroda va yangi normalarni yaratish, Bosh vazir darajasida esa, operativ-ma’muriy masalalar ustuvor bo‘lgan.

Fikrimizcha, yuqorida qayd etilgan hujjatlarni imzolash amaliyotidagi bunday keskin o‘zgarish shunchaki rasmiyatchilik emas, balki huquq ijodkorligi jarayonining qayta tuzilishini ko‘rsatadi. Bu Prezidentning huquq ijodkorligi funksiyasini institutsional jihatdan mustahkamlab, 2017-2026-yillarda Prezident qarorlarining ustunlik qilishiga zamin yaratdi.

To‘rtinchi masala Prezident huquq ijodkorligining negiziga borib taqaladi. Tahlil natijalariga ko‘ra, hujjatlarning 69,4 foizi bevosita yangi huquqiy munosabatlarni o‘rnatish va tartibga solishga qaratilgan, 17,5 foizi – Prezidentning boshqa hujjatlariga, 9,1 foizi esa, Konstitutsiya va qonunlarga asoslanadi.

Bu xususiyatning tarixan barqarorligi diqqatga sazovordir, 1991-2016-yillardagi Prezident hujjatlarining 65,8 foizi yangi huquqiy munosabatlarni o‘rnatishga, 7,3 foizi esa, bevosita Konstitutsiya va qonunlar normalarining ijrosiga qaratilgan. Ikkala davr uchun deyarli bir xil raqamlar bir tomonlama huquq ijodkorligi muayyan bir shaxs yoki siyosiy vaziyatning emas, balki tizimning xususiyati ekanligidan dalolat beradi.

T. Mo va U. Xauell tomonidan ishlab chiqilgan

nazariyaga ko‘ra, ijro hokimiyati mustaqil ravishda siyosiy natijalarni yaratadi [1, 175-b.]. S. Grimaldi davlat rahbarining real vakolatlari Konstitutsiyada mustahkamlangan rasmiy vakolatlarga qaraganda ancha keng namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi [11, 21-b.]. E. Vezer pre-rogativ vakolatlar yozma normalar amaliyotni qamrab olmagan hollarda ishga solinishini ko‘rsatadi [12, 42-b.]. J. Tleubayev ham davlat rahbari tegishli qonun qabul qilinmagan masalalar bo‘yicha norma belgilash funksiyasini bajarishini qayd etadi [13, 34-b.].

Demak, amaliyotda Prezident hujjatlari faqat qonunosti emas, balki huquqiy bo‘shliqni to‘ldiruvchi, yangi huquqiy munosabatlarni yuzaga keltiruvchi xususiyatga ega, chunki Prezident faqat qonunlarga emas, balki to‘g‘ridan to‘g‘ri Konstitutsiyaga asosan va uning ijrosi yuzasidan hujjatlar qabul qilishi mumkin.

S. Skach favqulodda vaziyatlarda farmonning ko‘lami kengayib, qonun o‘rnini bosuvchiga aylanishini ko‘rsatadi [14, 93-b.]. K. Bobilyova Prezident hujjatlarining qonunosti tabiatini ta’kidlab, amaldagi qonunchilik talablariga zid bo‘lmasligi va kompetensiya doirasida chiqarilishi lozimligini ko‘rsatadi [15, 69-b.].

Fikrimizcha, ikki davr uchun deyarli bir xil bo‘lgan ko‘rsatkichlar milliy sharoitda bir tomonlama harakat tezisini tizimli ravishda tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mustaqil huquq ijodkorligi muvofiqlashtiruvchi funksiyadan farqli ravishda, konstitutsiyaviy asosga ega bo‘lishi va Prezident vakolatlari doirasiga bog‘lanishi lozim.

Beshinchi masala normativ inflyatsiya va hujjatlarning hayotiyligi, ya’ni huquq ijodkorligining barqarorligi bilan bog‘liq. Prezident hujjatlariga tez-tez o‘zgartirishlar kiritish va bekor qilishlar huquqiy tizimning prognoz qilish imkoniyatini zaiflashtiradi.

2017-2026-yillardagi Prezident hujjatlarining 11 foiziga o‘zgartirish kiritilgan, bu ko‘rsatkich farmonlar bo‘yicha – 27 foizga, qarorlar bo‘yicha esa, 5 foizga yetgan. Umuman olganda, hujjatlarning 10,1 foizi bekor qilingan, 2017-yilda qabul qilingan farmonlarning deyarli uchdan bir qismi bugungi kunga qadar o‘z kuchini yo‘qotgan.

Qiyoslash uchun 1991-2016-yillarda Prezident hujjatlarining 26 foiziga o‘zgartirish kiritilgan, shuningdek, deyarli 59 foiz hujjatlar 2017-yildan keyin amalga oshirilgan islohotlar natijasi bekor qilingan.

2017-2026-yillarda o‘zgartirish kirituvchi hujjatlar soni 355 ta bo‘lib, ularning qariyb yarmi bir vaqtning o‘zida bir nechta hujjatga keng ko‘lamli o‘zgartirishlar kiritgan. Bunday zanjirsimon tahrirlash normativ-huquqiy bazaning o‘zaro bog‘liqligini oshiradi deb hisoblaymiz.

J. Gabb ijroiya farmonlarining asosiy zaifligini ularning “mustahkam emasligi”, ya’ni keyingi ma’muriyat tomonidan osonlikcha o‘zgartirilishi mumkinligida ko‘radi [16, 33-b.]. U. Xauellning ta’kidlashicha, bir tomonlama direktiva boshqa bir institut uni bekor qilmagunca o‘z kuchida qoladi [1, 175-b.].

Fikrimizcha, farmonlarning qarorlarga nisbatan besh barobar ko‘p o‘zgartirilishi tasodifiy emas, farmon strategik hujjat sifatida tegishli sohaning rivojiga qarab muntazam qayta ko‘rib chiqiladi. J. Gabb ta’kidlagan bunday oson o‘zgaruvchanlik ikki tomonlama oqibatga ega, bir tarafdan, u boshqaruvga moslashuvchanlik bersa, boshqa tarafdan, huquqiy barqarorlik va hujjatning prognoz qilinuvchanligini pasaytiradi.

Oltinchi masala – Prezident hujjatlarining

ochiqlik indeksi. Normativ-huquqiy hujjatlarning ommaviy foydalanish uchun ochiqligi qonun ustuvorligi va hisobdorlik tamoyillariga rioya etishning bevosita ko‘rsatkichi hisoblanadi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, ochiqlik darajasi hujjat turiga qarab farqlanadi: umuman olganda, Prezident hujjatlarining 45,4 foizi ommaviy e’lon qilingan. Bu ko‘rsatkich qarorlar kesimida – 55,2 foizni, farmonlar kesimida – 38,5 foizni, farmoyishlar kesimida esa, 7 foizni tashkil etadi.

Demak, ketma-ket raqamlash asosida hisoblanganda, ochiq ma’lumotlar bazasidagi hujjatlar umumiy sonning deyarli yarmini tashkil etadi, qolgan to‘rt mingga yaqin hujjat esa ochiq manbalarda aks etmagan, fikrimizcha, bu, asosan, grifli (o‘ta maxfiy, maxfiy, XDFU va b.) hujjatlar bo‘lib, davlat boshqaruvining xususiyatlaridan kelib chiqadi. Farmoyishlarning ochiqlik darajasi pastligi esa, ularning yakka tartibdagi, ichki tashkiliy xususiyatga egaligi bilan izohlanadi, biroq farmonlarning qarorlarga nisbatan kamroq e’lon qilinishi ham e’tiborga molik va tadqiqottalab masala hisoblanadi.

«Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida»gi Qonunga ko‘ra, normativ-huquqiy hujjatning rasman e’lon qilinishi uning qo‘llanilishi va huquqiy oqibat keltirishining shartidir [7, 38-m.]. Shu hujjatni rasman e’lon qilish shunchaki oshkoralik masalasi emas, balki uning amal qilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, huquqiy aniqlik va huquq ijodkorligining prognoz qilinuvchanligi muammosini ko‘taradi, bu esa tizimli takomillashtirishni taqozo etadi.

Yettinchi masala Prezident hujjatlarining konstitutsiyaviy iyerarxiyasi va davlat organlarini tashkil etishga taalluqli. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, davlat organlari va muassasalarini tashkil etish to‘g‘risidagi 113 ta hujjatdan 95 tasi – qaror, 18 tasi esa, farmon shaklida qabul qilingan. Eng yuqori jadallik 2017-yilga to‘g‘ri kelgan.

Tashkil etilayotgan organlarning turlari hujjat turiga qarab aniq farqlanadi. Farmon bilan, odatda, vazirliklar, davlat qo‘mitalari (2022-yil 21-dekabrda PF-269-son Farmon qabul qilingunga qadar), Prezident huzuridagi organlar, qaror bilan esa, asosan, ikkinchi darajali tuzilmalar: vazirliklar tarkibidagi tuzilmalar, oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari (bu toifa qarorlar orasida eng ko‘p uchraydi, tahlil etilayotgan davrda 50 dan ortiq bunday tashkilotlar ta’sis etilgan), shuningdek, markazlar va jamg‘armalar tashkil etilgan.

Bu taqsimot mantiqan izchil: davlat arxitekturasining asosi farmon bilan, uning ichki mazmuni esa qaror bilan shakllantiriladi. Biroq, har ikki holatda ham ushbu organlarning huquqiy maqomi qonun bilan emas, balki qonunosti hujjati bilan belgilanmoqda.

1991-2016-yillarda ma’muriy islohotlarga oid hujjatlar 8,6 foizni tashkil etgan. Har ikki davrda ham davlat organlarini qonunosti hujjatlari bilan tashkil etish amaliyoti saqlanib qolgan, faqat 2005-yildan keyin bu jarayon “farmon-qaror” taqsimoti orqali tartibga solingan.

O. Dregnin Prezidentning ayrim vazirlik va idoralarga bevosita rahbarlik qilishini ijro hokimiyati tuzilmasini shakllantirishdagi faol roli sifatida baholaydi [17, 101-b.]. V. Prokofyev davlat boshlig‘i faqat qonun yechimi talab qilmaydigan masalalar bo‘yicha qonunosti akt chiqarishi mumkinligini ko‘rsatadi [18,10-b.]. J. Rogovskiyning fikriga ko‘ra, bir tomonlama direktivalar siyosatdagi o‘zgarishlarning tobora muhim manbasiga aylanib bormoqda [22, 1-b.].

Bizning nazarimizda, davlat organlarining Prezident hujjatlari asosida tashkil etilishi va tugatilishi hokimiyatlar bo‘linishi mantig‘idan kelib chiqib, davlat boshlig‘ining qaysidir ma’noda ijro hokimiyatiga rahbarlik rolining amalda saqlab qolinganini bilvosita huquqiy jihatdan belgilab beradi.

Demak, yuqorida tahlil etilgan masalalar umumiy tendensiya – huquq ijodkorligining Prezident bosh ijro etuvchi hokimiyati tarmog‘i atrofida markazlashayotganini ko‘rsatadi. Prezident huquq ijodkorligi hajmining yuqoriligi, hujjatlarning uchdan ikki qismi mustaqil normativ manbalar ekani, davlat organlarining qonunosti hujjatlari orqali tashkil etilishi va shaffoflikning bir xil emasligi shu tendensiyaning turli jihatlarini o‘zida aks ettiradi.

Zamonaviy adabiyotlarda bu jarayon “prezidentlashuv” konsepsiyasi doirasida tavsiflanadi. V. Partlett postsovet va Markaziy Osiyo mamlakatlarida prezident vakolatlarini kengaytiradigan “tojdor prezidentlik” modeli shakllanganini ta’kidlaydi [19, 204-b.]. A. Nechkin superprezidentlik boshqaruv shaklini ijro hokimiyatining yetarlicha tiyib turish va muvozanat mexanizmlariga ega bo‘lmagan gipertrofiyalashgan vakolatlari bilan tavsiflaydi [20, 133-b.]. O. Zaznayevning qayd etishicha, postsovet davlatlarida yarim prezidentlik tizimi amalda superprezidentlik tizimiga aylanib qolgan [21, 195-b.].

O‘zbekiston misolida bu tendensiya konstitutsiyaviy islohotlar bilan muvozanatga keltirilmoqda. O. Muhammedjanov 2023-yilgi islohotlar Qonunchilik palatasining mustaqil vakolatlarini kengaytirgani va Vazirlar Mahkamasining parlament oldidagi hisobdorligini kuchaytirganini ta’kidlaydi [23, 414-b.]. I. Xamedov ham konstitutsiyaviy islohotlarni institutsional nazoratni kuchaytirishga qaratilgan deb baholagan [24, 78-b.].

Ikki davrni taqqoslash O‘zbekistonda “prezidentlashuv”ning chuqur ildizlarini ochib beradi: har ikki davrda ham mustaqil huquq ijodkorligi ulushining yuqoriligi bu xususiyat mustaqillik qo‘lga kiritilgandan buyon tizimli tus olganini tasdiqlaydi.

Fikrimizcha, tahlillar natijalari “prezidentlashuv” konsepsiyasining mohiyatiga mos kelsa-da, uning trayektoriyasi qat’iy emas. O‘zbekiston Konstitutsiyasining 11-moddasida mustahkamlangan hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi va parlament nazoratining kuchaytirilishi ijro hokimiyatining Prezident atrofida markazlashuviga nisbatan normativ muvozanat vazifasini o‘taydi. Shu bois bu tendensiyani statik holat sifatida emas, balki boshqariladigan jarayon sifatida baholash lozim.

Demak, Prezident farmon, qaror va farmoyishlarining 2017-2026-yillardagi tahlili natijalariga asoslanib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

birinchidan, uch toifadagi hujjatlar funksional jihatdan aniq farqlandi: farmon – davlat siyosatining strategik va normativ-huquqiy asoslarini belgilaydi, qaror – ushbu siyosatni operativ-ma’muriy darajada amalga oshiradi, farmoyish – muayyan tezkor masalalarni hal qiladi;

ikkinchidan, Prezident hujjatlarining uchdan ikki qismi yangi huquqiy munosabatlarni mustaqil belgilash xususiyatiga egaligi Prezident huquq ijodkorligining asosiy usuliga aylanganini ko‘rsatadi hamda ayni paytda, ularning konstitutsiyaviy asos va qonunosti tamoyiliga bog‘lanishini taqozo etadi;

uchinchidan, normativ inflyatsiyaning

sezilarli darajasi, ayniqsa, farmonlarga o‘zgartirish kiritish ulushining yuqoriligi, farmonlarga asoslangan boshqaruvning tarkibiy xususiyati bo‘lib, operativ samaradorlik va huquqiy barqarorlik o‘rtasidagi murosani aks ettiradi;

to‘rtinchidan, Prezident hujjatlarining turlari kesimida ochiqlik darajasining notekisligi huquqiy shaffoflik va hisobdorlikni oshirish bo‘yicha tizimli choralar ko‘rish zaruratini keltirib chiqaradi;

beshinchidan, davlat organlarining qonunosti hujjatlari orqali tashkil etilishi boshqaruvda operativ samaradorlikni ta’minlashi bilan birga, tarkibiy masalalarda qonun ustuvorligi prinsipini kuchaytirishni ham taqozo etadi;

oltinchidan, tahlillar Prezident bosh ijro etuvchi hokimiyat atrofida markazlashgan huquq ijodkorligi modelini tasdiqlaydi. Bunda asosiy vazifa – boshqaruv samaradorligi bilan hokimiyatlar bo‘linishi prinsiplari o‘rtasida muvozanat topishdan iborat.

Umumlashtirib aytganda, tadqiqot natijalari O‘zbekistonda Prezident huquq ijodkorligi tizimli va tarixan barqaror hodisa ekanligini ko‘rsatadi: uning yuqori hajmi, mustaqil normativ xarakteri, davlat institutlarini shakllantiruvchi roli va nisbiy normativ beqarorligi yagona tendensiyaning o‘zaro bog‘liq jihatlaridir. Shu bois bu jarayonni huquqiy davlat doirasida barqarorlashtirish, normativ inflyatsiyani jilovlash, hujjatlar ochiqligini oshirish – Prezident ijodkorligini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qoladi.

Manba va adabiyotlar ro‘yxati:

1. Howell W.G. Power Without Persuasion: The Politics of Direct Presidential Action. – Princeton: Princeton University Press, 2003. – 262 p.
2. Cheibub J.A. Reforming Presidential and Semi-Presidential Democracies // Bibliotheca Jurídica Virtual del Instituto de Investigaciones Jurídicas de la UNAM. – P. 3–31.
3. Lowande K., Rogowski J.C. Presidential Unilateral Power // Annual Review of Political Science. – 2021. – Vol. 24. – P. 21–43.
4. Миракулов М.М. Конституционно-правовой статус президентов Республики Узбекистан и США (сравнительно-правовой анализ) // Журнал зарубежного законодательства и сравнительного правоведения. – 2016. – № 2. – С. 23–29.
5. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси (2023 йилги янги таҳрири). – URL: https://lex.uz
6. Прокофьев В.Н. Полномочия Президента России в призме компонентов его конституционно-правового статуса // Вестник Саратовской государственной юридической академии. – 2016. – № 2 (109). – С. 158–164.
7. «Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни, ЎРҚ-682-сон, 2021 йил 20 апрель. – URL:https://lex.uz
8. Prakash S.B. A Taxonomy of Presidential Powers // Boston University Law Review. – 2008. – Vol. 88. – P. 327–340.

9. Mainwaring S. Presidentialism, Multiparty Systems, and Democracy: The Difficult Equation // Kellogg Institute Working Paper #144. – 1990. – P. 1–30.
10. Гогурчунов Б.И. Место и роль института Президента Российской Федерации в системе исполнительной власти // Юридический вестник ДГУ. – 2012. – № 3. – С. 35–42.
11. Grimaldi S. The Elephant in the Room in Presidential Politics: Informal Powers in Western Europe // Political Studies Review. – 2023. – Vol. 21, No. 1. – P. 21–41.
12. Veser E. Semi-Presidentialism – Duverger's Concept: A New Political System Model // Journal of Humanities and Social Sciences. – 1999. – Vol. 11, No. 1. – P. 39–60.
13. Тлеубаев Ж.С. Скрытые полномочия Президента РФ // Вестник Челябинского государственного университета. – 2012. – № 27 (281). Право. Вып. 32. – С. 34–38.
14. Skach C. The "newest" separation of powers: Semipresidentialism // International Journal of Constitutional Law (I·CON). – 2007. – Vol. 5, No. 1. – P. 93–121. DOI: 10.1093/icon/mol025
15. Бобылёва К.Н. Полномочия Президента Российской Федерации в сфере исполнительной власти: дис. ... канд. юрид. наук: 12.00.14. – М., 2007.
16. Gubb J.M.S. Reassessing the President's Administrative Powers: Doctoral dissertation. – Cambridge, MA: Harvard University, Graduate School of Arts & Sciences, 2019. – 149 p.
17. Дрегнин О.Е. Проблемы института президентства в России // Социально-политические науки. – 2018. – № 1. – С. 101–103.
18. Прокофьев В.Н. Экстраординарные полномочия Президента Российской Федерации // Государственная власть и местное самоуправление. – 2017. – № 3. – С. 8–13.
19. Partlett W. Crown-Presidentialism // International Journal of Constitutional Law (I·CON). – 2022. – Vol. 20, No. 1. – P. 204–236. DOI: 10.1093/icon/moac011
20. Нечкин А.В. Форма правления в государствах мира: проблемы классификации и пути их возможного решения // Lex Russica. – 2019. – № 5 (150). – С. 132–147.
21. Zaznaev O. Understanding Semi-Presidentialism in Political Science: A Review of the Latest Debate // World Applied Sciences Journal. – 2014. – Vol. 30, No. 2. – P. 195–198.
22. Rogowski J.C. Public Opinion and Presidents' Unilateral Policy Agendas // American Journal of Political Science. – 2023. – Vol. 67, No. 4. – P. 1–17.
23. Мухамеджанов О. Конституция Узбекистана в новой редакции: цели, приоритеты, особенности // Studia Politologiczne. – 2025. – Vol. 77. – С. 408–424. DOI: 10.33896/SPolit.2025.77.17.
24. Khamedov I.A. National and International Vectors of the Constitutional Reform in Uzbekistan // European and Asian Law Review. – 2024. – Vol. 7, Is. 1. – P. 74–80.